

MUSTAQILLIK SHAROFATI BILAN OQLANGAN JADIDLAR. MARYAM SULTONMURODOVA (1905–1971 yilda)

*Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat
muzeyi ilmiy xodimi: Madaliyeva Aziza*

Maryam Sultonmurodova 1919 yildan Toshkentdag'i maorif maktab gimnaziyasida o'qiydi. Shundan so'ng oliy ma'lumot olish maqsadida 1920-21 yillarda Orenburg tatar pedagogika institutida o'qiydi. 1921 yil yozgi ta'tilda Xorazmga kelgan Maryam Xorazm kompartiyasi Markaziy Kengashida avval adabiy bo'limga, so'ng ayollar bo'limiga rahbarlikka tayinlanadi. Maryam bu vazifaga kirishadi. Biroq, og'ir tarixiy sharoit va qiyinchiliklar unga ko'nglidagidek ishlash imkonini bermadi. Natijada 1922 yil iyulda Toshkentga kelib, O'rta Osiyo davlat universitetining Ishchi fakultetiga hujjat topshiradi. 1922 yil oktyabrida Maryam Sultonmurodova Buxoro hukumati tomonidan Germaniyaga o'qish uchun yuborilayotgan talabalar safiga kiritiladi. Xorazm Xalq Respublikaning Moskvadagi muxtor vakilligi xodimi Karim Safayev yordamida Maryam xorij uchun pasport olib, Leningradga boradi. Leningrad portidan Xayrinisa Majidxonova, To'lagan Mo'minovlar bo'lgan guruh bilan paroxodda Germaniyaning Shtetsin shahriga yetib boradilar. Hech qachon ochiq dengizni ko'rmagan sahro qizi paraxodga tushishi bilan u yerga yetib borguncha betob bo'ladi. Maryam Sultonmurodova 1922-23 yillarda Berlin universiteti qoshidagi olti oylik tayyorlov kursida o'qiydi. 1924 yil Darmshtadt shahridagi "Viktoriya" o'qituvchilar seminariyasiga imtixon topshiradi. Darhaqiqat, xorij ta'limi Maryamxonga oson kechmadi. Germaniyada tahsil olgan Sattor Jabborning Ertoy nomi bilan "Turkiston" gazetasining 1924 yil 2 sentyabr sonida e'lon qilingan maqolasida bu to'g'rida shunday yoziladi: "...Xivalik Maryamxon moddiy tomondan yaxshi ta'min qilinmagani uchun yo'llarida ko'p chatoqliklar ko'radir. Chindan hayot xotini bo'lmoq va Turkistonda qolg'on opa-singillarimizning istiqboli uchun hech kim ko'rsatmas qahramonlik qilib kelgan qimmatlik qizimizga Xorazm jumhuriyatimizning shunday sovuqqonlik bilan qarashig'a Turkiston yoshlari taassuf etolmay turolmaydurlar".

Maryam 1924-26 yillar Darmshtadt oliy seminariyasida ta'lim oldi. 1926-27 yillarda esa Berlin yaqinida Potsdamdagi "Fraunshulle" maktabida amaliyot o'taydi.

1927 yil yozgi ta'til vaqtida Xayriniso Majidxonova bilan birga 29 iyuldan 18 avgustgacha Parij shahrida bo'ladilar. Ularning Parij opera teatri oshxonasida Ahmad Naim va Mustafo Cho'qaylar bilan 2-3 daqiqalik uchrashuvi keyinchalik qatag'on etilishi uchun asosiy bahona bo'lgan edi. 1927 yil kuzidan Mariyam Berlin shahrining Veding tumanidagi professor Finkelshteynning olti oylik hamshiralik kursini o'qib bitiradi va 1928 yil SSSRga qaytadi.

Bu haqsizliklar ham Maryamning irodasini sindira olmadi, o‘zini bir lahma bo‘lsin aybdor deb bilmadi. Haqiqatga ishondi, insoniyligini yo‘qotmadni. Bu bilan sho‘rolar tuzumining sharmandali tarixida inson matonati timsoli sifatida qoldi. Maryam Sultonmurodova qalamiga mansub ko‘plab maqola va ocherklar, “Mehr ko‘zda”, “Kutilmagan baxt”, “Qalbim nidosi”, “Rahmat desinlar”, “Majnuntol”, “Karvonlar kelganda”, “Betamiz yigit” sarlavhali hikoyalar bu ayolning yuksak iqtidoridan darak beradi. Maryam Sultonmurodova ilm-ma’rifat fidoysi, bardoshli jurnalist, mehrli hamshira edi.

Abduvahhob Murodiy (1901 – noma’lum)

Abduvahhob Murodiy 1901 yilning 29 mayida kuni Toshkentning Egarchi mahallasida tuzilgan. Qashshoq oilada farzandi Abduvahhob go‘dakligidanoq o‘zidagi cheksiz g‘ayrat va iqtidori bilan Toshkent taraqqiyatvarvarlarining yetakchisi Munavvar qori Abdurashidxonovning nazariga tushadi. Shundan keyin, uning ta’lim va tarbiya olishiga Munavvar qori to‘liq homiylik qiladi. U 1913 yili Eshonxo‘ja Xoniyning “Xoniy” maktabini, 1914 yili esa Munavvar qorining “Namuna” maktabalarini bitiradi. 1915 yil Munavvar qori tavsiyasi bilan Namangan shahridagi jadid mакtabiga o‘qituvchi sifatida yo‘llanib, bir yil u yerda ishlaydi. 1916-1917 yillar Toshkentdagи “Hayot” maktabida dars beradi. 1917-19 yillarda esa. U Ozarbayjonning Boku shahridagi ziroat bilim yurtida o‘qiydi. So‘ng Toshkentga qaytib, 1919-20 yillar “Mashrab” maktabida dars beradi, mudirlik ham qiladi. Shu bilan birga Said Ahroriyning «Izchilar to‘dasи», Fitratning «Chig‘atoy gurungi» tashkilotlari tadbiralarida faol ishtirok etadi. Abduvahhob Murodiy 1930 yil 25 aprel kuni Munavvarqori Abdurashidxonov rahbarligidagi «Milliy ittihod» tashkiloti a’zosi sifatida OGPU tomonidan qamoqqa olinadi. U bir yildan ortiq vaqt davom etgan qiyonoq va tahqirlar ostida so‘roq qilinadi. Bu tergov materiallari mazmuni bugun Murodiyning jinoyatchi emas, aksincha haqiqiy millat qahramoni ekanligini isbotlovchi dalillardir. Jumladan, u tergovchining Germaniyada tahsil olgan Turkiston yoshlarining maqsadi haqidagi savoliga quyidagicha javob beradi: «... Biz Germaniyada faqat bir narsa haqida o‘ylar edik. Avvalo, xorijiy tillarni o‘rganib, Ovro‘po ilm-fani yutuqlarini mamlakatimizga olib kiramiz der edik. Shu maqsadda til kurslarini tugatish bilan tezdan eng iqtidorli yigitlarni imkon qadar turli-tuman sanoat va ilm-fan jabhalariga kengroq taqsimladik. Shu bilan birga o‘sha ilmlarning asoslarini mukammal egallash, turkiy tilda ularning terminologik lug‘atlarini tayyorlash, kerak bo‘lganida o‘zimizda yangi avlodni yetishtirish uchun o‘sha fan va hunarlarning o‘qitish usullarini o‘zlashtirdik. Kitoblarini to‘plab kengroq ma’lumotlarni o‘zlashtirishga, tarjimalar qilishga intildik. Maqsad Vatanga katta ilm bilan qaytish edi. Biroq, bizga nisbatan tayziqni kun sayin kuchaytirib borishdi. Hatto, bir qism yoshlar mamlakatga qaytib borish fikridan qaytish darajasida qo‘rqib qoldilar... Men Turkiyada ko‘plab tanishlar orttirganman, menga u

mamlakatning pasporti ham berilgan edi. Biroq, Ovro‘poga Vatanim ravnaqi uchun xizmat qilaman deb yo‘l olgan edim. Meni Vatanga ham faqat unga foydam tegadi degan maqsad yetaklab keldi. Vatanimda oson bo‘lmasligini bilganim holda qaytdim. Tirik qolsam Vatanimda yashayman, aks holda unga xizmat qilib o‘laman. 1931 yilning 25 aprel kuni OGPU kollegiyasi qarori bilan Abduvahhob Murodiyga otuv hukmi 10 yillik konslager bilan almashtirildi. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda u jazoni Oq dengizdagi orollarda joylashgan dahshatli Solovki lagerida o‘tagan va shu joyda halok bo‘lgan. 1932 yil uni Toshkentda intizorlik bilan kutayotgan va allaqachon o‘zbek tilini o‘rganib olgan turmush o‘rtog‘i – olmon qizi Marta xonim va qizalog‘i Potye (o‘zbekcha ismi Maryam)lar sho‘rolar mamlakatidan chiqarib yuboriladi. Xullas, mustabid tuzum hech biri o‘z isbotini topmagan bo‘htonlar bilan endigma 30 yoshni qarshilagan yetuk mutaxassisning hayotiga zomin bo‘ladi. Taassufki, endigma 30 bahorni qarshilagan, millat qayg‘usi bilan yongan olov qalbli millat farzandi notanish o‘lkalarda, sovuqning qahraton bag‘rida Ona zamini va oilasi sog‘inchi bilan jon beradi. Balki uning so‘nggi so‘zi «Alvido Vatan» bo‘lgandir, balki bo‘g‘zida qolgan armoni suykli yori, aziz qizi diydoriga yetmoq bo‘lgandir. Balki, so‘nggi daqiqalarga qadar Vatanga qaytmoq umidi uni o‘limga, mustabid tuzum adolatsizliklariga bo‘yin egmagan ruhi, olov nigohida so‘nggi tomchi yosh bo‘lib oqqandir.

XAYRINISO MAJIDXONOVA

(1905 – 1938)

Xayriniso Majidxonova 1905 yil 25 dekabrda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Uning otasi el hurmat qilgan mahalla oqsoqol Majidxon Jalilov ilmli, ma’rifatparvar inson bo‘lgan. U Rossianing Moskva, Sankt-Peterburg kabi qator shaharlariga safar qilib, jadid g‘oyalari bilan tanishgan. Shu bois, oila a’zolari, xususan, qizlarining ham yevropada ta’lim olishiga to‘sinqilik qilmaydi. Xayriniso dastlab Miroboddagi yangi maktabda tahsil olib, rus va nemis tillarini o‘rgandi. Undagi dunyoqarashining shakllanishida Turkiston jadid matbuotining, shuningdek, bu vaqtida birinchi o‘zbek xotin-qizlar bilim yurtida o‘qiyotgan opasi Oyposhshaxonning ham ta’siri katta bo‘lgan. Uning 1922 yili “Turkiston” gazetasida chop etilgan maqolasida endigma 17 yoshni qarshilagan qizning vatan istiqboli haqidagi orzu-istiklari o‘rin olgan edi. Maqolani o‘qir ekansiz, o‘tgan asrning boshida yashagan bir o‘zbek qizining tarixiy tafakkuri naqadar kengligi, Vatan taqdiri oldida o‘zini qanchalik daxldor sezishidan, jasorati, millatiga bo‘lgan mehri, sevgisidan hayratga tushasiz. Maqolada aks etgan davrga yuz yil bo‘lganiga qaramay, unda ilgari surilgan fikrlarning ba’zilari ayni paytda ham dolzarb ekani, aksar orzularining esa amalga oshganidan taajjubga tushamiz. Quyida Xayriniso Majidovaning maqolasidan iqtibos keltiramiz. “Turkistonning dunyo savdo maydonida tutqon vaziyati XVII asrdan beri tuban darajada qolib keldi. Bu asr umuman musulmon mamlakatlarining tanazzul davri bo‘lib, tanazzulning ham ko‘p sababi karvon yo‘llarining ahamiyati ketib, g‘arblilar tarafidan dengiz yo‘llarining yuksaltirilishi edi. XIX asrda ham Turkiston G‘arbiy

Ovrupodan uzoq bo‘lg‘onlig‘i uchun, taraqqiyot tomonidan boshqa musulmon mamlakatlardan ham tuban darajada turdi. XX asrning boshida ham qo‘sнимиз bo‘lgan Eron xalqi siyosiy fikrlar bilan sug‘orilib, o‘z elida sanoat turg‘izish va chetlarning ta’siridan qutulish yo‘lida qon to‘kkani muddatda bizning Turkiston tinch uxlamoqda edi... Faqat Russiyadan temir yo‘l kelib, savdo maydoni kengaydi... Bundan ochiq anglashiladirki bizning moziyimizni porloq qilg‘on - elimizdan o‘tgan karvon yo‘li bo‘lsa, istiqbolimizni porloq qilg‘uchi, elimizni jahon savdo maydonig‘a tutoshdirg‘uvchi ulug‘ temir yo‘ldir. Ular bizning savdomizni kengaytur, bizga boyliq va obodliq berur va o‘zimizga katta sanoat turg‘azishga imkon ochar”. Shuningdek maqolada uning uzoqni ko‘ra olgan teran fikr, bugunning ta’biri bilan aytganda siyosiy-iqtisodiy tahlilchi ekani yaqqol namoyon bo‘ladi.

Xayriniso Majidxonova maqolada Turkiston jamiyatining ma’naviy qiyofasiga ham to‘xtalib: «... bizning bu dardimizning ham buyuk qurollari matbuot, maktab va teatrdir. Bizda bularning har qaysisi bor. Lokin, ular o‘zlarining tarixiy vazifalarini yeriga yetkaza oladirg‘on darajada emasdirlar. Bizning yangi maktablarimizdan shul vaqtg‘acha xalq hurkib keldi. Matbuotdan uzoq turdi. Teatrni anglamadi. Chunki, bularning har qaysisi o‘zining asosiy vazifasining haykal mujassami bo‘la olmadi. Xalqning ruhiga ehtiyyot bilan yaqinlashib, unga ta’sir ijro qila olmadi. Har bir xalqning uyg‘onish davrida g‘oyat muhim o‘rin tutadirg‘on bu uch buyuk qurolni o‘z vazifalarining ruhi bilan sug‘orish bizning navbatdagi ishimizdir... Bizning tadrijiy taraqqiyotimiz shul yo‘llar bilan borsa kerak. Aks holda, biz o‘z moziyimizdan uzulib xalqning g‘urbatda qolishiga sabab bo‘lurmiz», – deb xulosalaydi. Xayriniso Majidxonova 1928 yili O‘zbekistonga qaytib, Toshkentdag‘i Kasaba uyushmalari Markaziy Qo‘mitasi xodimlari jumhuriyat boshlang‘ich va umumta’lim o‘qituvchilarining dam olish uyida shifokor bo‘lib ishlay boshladi. 1935 yili Toshkent tibbiyot institutini bitirgan Xayriniso o‘qituvchilar dam olish uyida vrach-terapevt hamda Fayzulla Xo‘jayev nomidagi O‘zbek poyabzal tresti ambulatoriyasida shifokor-vrach bo‘lib ishlaydi. Oldiga qo‘ygan buyuk maqsadlar yo‘lidan borayotgan Xayriniso Majidxonova navqiron 32 yoshida totalitar tuzumning qonli qatag‘oni girdobiga tortiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ma’naviyat-asosiy tushunchalar lug‘ati”-O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyat, Toshkent 2016 – yil nashri.
2. “Guliston”-ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-badiiy, madaniy-ma’rifiy Jurnal- 2021-yil soni.
3. “Moziydan sado”-ilmiy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal. 2024 yil.
4. <https://telegra.ph/Jadidlar-taqvim>